



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yili 8-sinf I yarim
yillik uchun jahon tarixi fanidan

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 8-sinf uchun jahon tarixi fanidan I yarim yillik
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Fransiyada markazlashgan davlatning tashkil topishi. General shtatlar	1		
2.	Yuz yillik urush: sabablari, yakunlari va oqibatlari	1		
3.	Fransiyaning birlashtirishning tugallanishi va uning natijalari	1		
4.	Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi	1		
5.	XIV-XV asrlarda Angliya	1		
6.	Germaniyada ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot	1		
7.	Italiya: shahar respublikalar va Rim papalari davlati	1		
8.	BSB – 1. Amaliy topshiriq (50 ball)	1		
9.	Pireney yarimoroli mamlakatlari: Ispaniya va Portugaliya	1		
10.	Rus knyazliklarida ijtimoiy-siyosiy hayot	1		
11.	Bolqon mamlakatlari, Markaziy va Sharqiy Yevropa	1		
12.	Bolqon mamlakatlari, Markaziy va Sharqiy Yevropa	1		
13.	Uch qit’ani birlashtirgan sultonlik (Usmoniy turklar davlati)	1		
14.	Uch qit’ani birlashtirgan sultonlik (Usmoniy turklar davlati)	1		
15.	CHSB – 1. Test savollari (40 ball)	1		
16.	O‘rta asrlarda Eron	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Fransiyada markaz lashgan davlatning tashkil topishi. General shtatlar

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, turli mamlakatlarga oid tarixiy voqealarni tahlil etish, qiyoslash hamda ularga nisbatan fikr bildirishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: o'quvchilar mustaqil ishlashga o'rgatish, o'quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish. Yevropada Angliya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Osiyoda Amir Temur va Temuriylar saltanati, Usmoniy turklar sultonligi, Oltin O'rda, Xitoy, Hindiston, Yaponiya va Koreya kabi davlatlar jahon xalqlari hayotida o'ziga xos tarix yaratilishi, Sharq va G'arb mamlakatlari davlat boshqaruvida – kengash, General shtatlar, parlament vujudga kelishi va ular hozir ham muhim ahamiyatga ega ekanligini haqida o'quvchilarga tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi: Markazlashgan davlatlarning tashkil topishi ijtimoiy-iqtisodiy soha yuksalishiga zamin bo'lganligi, turli siyosiy jarayonlar ta'sirida dehqonlar qaramligi bekor qilinishi, shaharlar hayoti taraqqiy etib borilishi, Buyuk ipak yo'li orqali Osiyo va Yevropa mamlakatlari o'zaro qizg'in savdo-sotiqni amalga oshirilganligi o'z navbatida, Sharq va G'arb, Shimol va Janub mamlakatlari hamda xalqlari o'rtasida xalqaro munosabatlarning rivojlanishi haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarini (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;

xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: «Jahon tarixi» 8-sinf uchun darslik, mavzuga oid ko'rgazmali qurollar, plakatlar, tarqatma materiallar o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Franklar imperiyasining qudratli hukmdori Buyuk Karl vafotidan so'ng uning v orislari tomonidan 843-yilda tuzilgan Verden shartnomasi ulkan imperiyaning bo'linishini boshlab berdi. 987-yilda Karolinglar sulolasining so'nggi vakili Lyudovik V vafotidan so'ng Kapetinglar sulolasining dastlabki vakili Gugo Kapet hokimiyat tepasiga keldi. Bu vaqtda qirol hokimiyatining siyosiy nufuzi juda past bo'lib, mamlakatda tarqoqlik kuzatilardi. Fransiya 14 ta mustaqil mulklarga bo'linib ketgan edi. Ularni gersog va graflardan iborat feodallar boshqarardi. Ayrim feodallar, jumladan, Burgundiya, Normandiya, Akvitanija grafligi hatto qirolning ko'proq yer-mulklar, aholi va siyosiy qudratga ega edi. Shuning uchun yirik gersog va graflar qirolni "tenglarning birinchisi" deb hisoblashardi.



Mehnatning hududiy taqsimoti asosida Tuluza va Flandriya to'qimachilikka, Normandiya temirchilik, tuz ishlab chiqarishga, qoramol va yilqi yetishtirishga, Burgundiya va Shampan movut ishlab chiqarishga hamda vinochilikka ixtisoslashgan edi. Savdo va iqtisodiy markazlarning eng yirigi, shubhasiz, Parij shahri edi. Shuningdek, Parijning Sena, Marna kabi ulkan daryolar havzasida joylashganligi uning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Fransiyaning birlashtirish jarayoni qirol Lyudovik VI davrida boshlandi. U butun hukmronlik davrini mahalliy feodallarga qarshi kurash bilan o'tkazib, Burj va Sans shaharlarini qirollik hokimiyatiga bo'ysundirdi.

Mamlakatni birlashtirish yo'lidagi eng katta to'siq Angliyaning Fransiya qo'sunlari edi. Shuning uchun qirol o'g'li Lyudovik VII ni

Akvitanija malikasi Eleonoraga uylantirish orqali ma'lum muddat ushbu muhim hududni ham o'ziga qaram qildi. Qirol Filipp IV papaga qarshi kurash olib borish jarayonida mamlakatdagi toifa vakillarining qo'llab-quvvatlashiga erishishga harakat qildi. Shuning uchun 1302-yili Parijning bosh ibodatxonasida uch toifa vakillari – ruhoniylar, dvoryanlar va mulkdor shaharliklardan iborat General shtatlarni chaqirdi. Shu vaqtdan boshlab qirollar

mamlakatda har safar yangi soliqlar joriy qilish zaruriyati yuzaga kelganda General shtatlarni chaqira boshladi. Soliqlarning butun og'irligi dehqonlar va hunarmandlar bo'yniga tushar edi. Mamlakatni birlashtirish davomida butun aholi qirol fuqarolariga aylandi. Bu davrga qadar fuqarolarning aksariyat qismi yirik amaldorlar, gersog va graflar, shuningdek, boshqa zodagonlarga qaram bo'lgan. Shu davrda butun Fransiya aholisi huquq va majburiyatlari otadan bolaga meros bo'lib o'tadigan uch toifaga bo'lindi. Bulardan birinchi toifa – ruhoniylar, ikkinchi toifa – mulkdor zodagonlar bo'lib, ularning o'ziga xos imtiyozlari va huquqlari bor edi. Xususan, ular qirolga soliq to'lashdan ozod etilgandi. Uchinchi toifa boy shaharliklar, dehqonlar, hunarmandlar va shahar kambag'allarini tashkil etar edi. Bu toifa orasida boy shaharliklar yetakchilik qilib, ularning vakillari ko'pincha qirol majlislariga chaqirib turilgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Ijtimoiy-siyosiy ahvol. Mamlakatni birlashtirish zarurati;
2. Fransiya toifaviy monarxiyaning qaror topishi;
3. Aholining toifalarga bo'linishi. Fransiya qirolining cherkovga qarshi siyosati;
4. General shtatlarning chaqirilishi. General shtatlardagi ixtilof.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish:

1. Feodal tarqoqlik davrida Fransiya qanday o'zgarganligini tushuntiring.
2. Mehnat va ishlab chiqarishning hududiy taqsimoti hamda uning ahamiyatiga oid misollar keltiring.



Boylar shaharliklar • Dehqonlar • Hunarmandlar • Shahar kambag'allari

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Yuz yillik urush: sabablari, yakunlari va oqibatlari

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, turli mamlakatlarga oid tarixiy voqealarni tahlil etish, qiyoslash hamda ularga nisbatan fikr bildirishni o‘rgatish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilar mustaqil ishlashga o‘rgatish, o‘quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish. Yevropada Angliya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Osiyoda Amir Temur va Temuriylar saltanati, Usmoniy turklar sultonligi, Oltin O‘rda, Xitoy, Hindiston, Yaponiya va Koreya kabi davlatlar jahon xalqlari hayotida o‘ziga xos tarix yaratilishi, Sharq va G‘arb mamlakatlari davlat boshqaruvida – kengash, General shtatlar, parlament vujudga kelishi va ular hozir ham muhim ahamiyatga ega ekanligini haqida o‘quvchilarga tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi: Markazlashgan davlatlarning tashkil topishi ijtimoiy-iqtisodiy soha yuksalishiga zamin bo‘lganligi, turli siyosiy jarayonlar ta’sirida dehqonlar qaramligi bekor qilinishi, shaharlar hayoti taraqqiy etib borilishi, Buyuk ipak yo‘li orqali Osiyo va Yevropa mamlakatlari o‘zaro qizg‘in savdo-sotiqni amalga oshirilganligi o‘z navbatida, Sharq va G‘arb, Shimol va Janub mamlakatlari hamda xalqlari o‘rtasida xalqaro munosabatlarning rivojlanishi haqida tushuncha berish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

Jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: «Jahon tarixi» 8-sinf uchun darslik, mavzuga oid ko‘rgazmali qurollar, plakatlar, tarqatma materiallar o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.


III. Yangi mavzu bayoni:

XIV asrda Angliya va Fransiya o‘rtasida uzoq davom etgan urush boshlanib ketdi. Bu urush vaqti-vaqti bilan 1337–1453-yillar oralig‘ida bo‘lib o‘tdi va tarixda “Yuz yillik urush” nomi bilan qoldi. Urushning sababi nima edi? Fransiya mamlakatni birlashtirish uchun o‘z hududida joylashgan Angliyaga qaram Akvitaniya viloyatini o‘ziga qo‘shib olishga intilar, Angliya esa ulkan daromad manbayi bo‘lgan Akvitaniyani qo‘ldan chiqarish ni istamas edi. Akvitaniyadan Angliyaga vino, meva, zotdor otlar olib ketilar va bu yerda ingliz feodallarining yer-mulklari ham bor edi. Shu bilan birga, AngliyaFransiyadagi avvalgi mulklarini ham qaytarib olishga harakat qilar edi. Bundan tashqari, Flandriya viloyati masalasida ham Angliya va Fransiya o‘rtasida raqobat paydo bo‘ldi. Fransiya Flandriyani to‘liq bo‘ysundirishga harakat qilar, Flandriya sanoat hududi sifatida inglizlarning jun xomashyosiz ish

ko'ra olmas edi. Urush rasman 1337-yilda Angliyaning Fransiya hujumi bilan boshlandi. 1340-yilda inglizlar shiddatli harbiy harakatlarni amalga oshirib, fransuzlar flotini tor-mor keltirdi dengizda hukmron flotga aylandi. Shundan so'ng ikki tomon quruqlikda 1346-yil Kresi yaqinida to'qnashdilar. Urush fransuz ritsarlarining shijoati bilan boshlandi. Ritsarlar jangga o'zlarining jangovar qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyati sifatida qaradilar. Biroq urushning asosiy janglarida ritsarlar emas, dehqonlardan iborat piyoda askarlar jasorat ko'rsatdilar. Bu Yuz yillik urush tarixida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Kresi jangida fransuz qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Eduard III boshchiligidagi ingliz qo'shini esa to'la g'alaba qozondi. 1358-yil Fransiyaning Bove viloyatida dehqonlar qo'zg'oloni boshlandi. Bu qo'zg'olon tarixga Jakeriya nomi bilan kirdi va qisqa vaqt ichida Sena, Marna, Il de Frans, Shampain viloyatlariga ham tarqaldi. Qo'zg'olonida 100 mingdan ortiq dehqonlar ishtirok etdi. Qo'zg'olonchilar qirol dehqonlarning azob-uqubatlaridan bexabar, u oddiy xalqqa xayrixoh deb ishonar edilar. Shuning uchun ham o'z bayroqlariga qirolning gerbi – oq nilufar tasvirini tushirishgan edi.



Yuz yillik urush davrida Fransiya xaritasi, 1435-yil



Yuz yillik urush. Puatye jangi

Fransuz qirol Karl V 1360-yilda inglizlar bilan sulh imzoladi. Sulh shartnomasi og'ir shartlarni o'z ichiga olib, unga ko'ra Fransiyaning shimoli va g'arbidagi ko'pgina hududlar Angliya tasarrufiga o'tdi. Fransiya urushni davom ettirishga qodir emasligidan bu shartlarni qabul qilishga majbur edi. Biroq vaqt nuqtayi nazaridan bu sulh Fransiya o'zini o'nglab olishga imkon yaratdi. Bu davr oraliqida qirol Karl V o'zboshimcha mahalliy zodagonlarni bo'ysundirdi, puxta harbiy ta'lim ko'rgan qo'shin to'pladi, kuchli flot tashkil etdi. Buislohotlar o'z samarasini berib, 1369-yilda bo'lib o'tgan jangda Angliya mag'lubiyatga uchradi. Biroq qirol Karl V vafotidan so'ng Fransiya vaziyat yana og'irlashdi. Urush qayta boshlandi. 1415-yilda Azenkur yaqinida bo'lib o'tgan jangda fransuzlar qo'shini qaqshatqich mag'lubiyatga uchradi. Inglizlar Fransiyaning shimolini egallab, Parijga bostirib



Sulh imzolanishi

kirdilar. 1420-yilda Fransiya uchun haqoratomuz Trua shartnomasi imzolandi. Janna d'Ark Orleana yetib kelib inglizlarga qarshi shiddatli janglarni boshlab yubordi. Uning o'zi janglarda mardlik va shaxsiy namuna ko'rsatar, asarlarni ruhlantirar edi. 1429-yilda Orlean shahri qamaldan ozod qilindi va bu Yuz yillik urushda tub burilish yasadi. Xalq Janna d'Arkka "Orlean qizi" deb nom berdi. Janna Orlean shahridagi g'alabasi bilan Yuz yillik urush oqimini Fransiya foydasiga keskin o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. Uning ishtirokida Fransiyaning qator viloyatlari ozod qilindi. Janna d'Arkning taklifi bilan qirol Karl VII (1422–1461) Reims shahriga borib, tantanali ravishda taxtga o'tirdi. Ular Janna d'Arkdan qutulish yo'lini izlay boshlashdi, unga hayotini xavf ostiga qo'yadigan vazifalar topshira boshladilar. 1430-yilda jasur Orlean qizi Kompen qal'asi uchun bo'lgan janglarda burgundlarga asir tushib qoldi.



Janna d'Ark. Orleanning ozod qilinishi

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Yuz yillik urushning kelib chiqish sabablari. Urushning boshlanishi;
2. Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning og'irlashuvi. Jakeriya qo'zg'oloni;
3. Angliya bilan sulh shartnomasining imzolanishi;
4. Janna d'Ark. Urushdagi tub burilish. Urush yakunlari.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish:

1. Yevropada Yuz yillik urush sodir bo'layotgan vaqtda Movarounnahrda qanday jarayonlar kechayotgan edi? Misollar keltiring.
2. O'tilgan mavzu bo'yicha takrorlash.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

34 listdan iborat 8-sinf jahon tarixi fanidan I yarim yillik konspektni to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**